

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rini foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	335
M.A.Kuchkarova	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
K.Sh.Nishonova	
Boshlang'ich ta'limga integrativ ta'limga va uning turlari.....	347
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy ta'limga jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasи	354
M.M.Abdumannopov	
Ta'limga raqamlashtirish sharoitida talabalarining mustaqil ta'limga olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
T.Y.Bakirov, O.S.Axmадjonova	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
N.A.Qodirova	
Texnika olyi o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	366
Z.N.Ortiqova	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva	
Ta'limga o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rni	377
I.Kirgizov	
"Ey sabo" – komil insonga aksilogik yondashuv	381
A.T.Karimov	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
A.M.Nurmuxammadjonov	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati	390
M.M.Najmetdinova	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
M.Kurbanova	
Dutor cholg'usi ijrochiligidagi musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari	400
X.M.Shermatova	
Maktabgacha ta'limga tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
T.N.Shokirov	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
B.M.Qurbanova	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
L.Sh.Shukurova	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili.....	415
A.A.A'zamjonov	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rni	419
A.A.Abdisattorov	
Musiqaga o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
I.D.Rustamov	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rni (Doira cholg'usi misolida).....	428
A.A.Ergashev	
Vokal-xor ta'limga finale-2003 dasturining qo'llanishi	432
A.A.Mamurov	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



УО'К:725 947.6

**MARKAZIY OSIYO MADANIYATI VA SAN'ATI JAHON MADANIYATINING
RIVOJLANISH CHORRAHASI**

**ЦЕНТРАЛЬНО АЗИАТСКАЯ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО ПЕРЕКРЕСТОК РАЗВИТИЯ
МИРОВОЙ КУЛЬТУРЫ**

**CULTURE AND ART OF CENTRAL ASIA WORLD CULTURE DEVELOPMENT
CROSSROADS**

Shokirov Toxirjon Nurmamatovich
Farg'onan davlat universiteti, f.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo xalqlari o'zlarining uzoq ziddiyatli murakkab tarixga ega ekanliklari, ushbu yurda juda ko'p bosqinchilik va talonchilliklar bo'lganligi, o'zbek musiqa madaniyati va san'atining ildizlari juda qadimiyligi va Iskandar Zulqarnayn yurtimiz musiqa asboblariga xayrat bilan qaraganligi, yunonlar musiqa asboblarimizni o'rganganliklari, bunga dalil bo'la oladigan faktlarning borligi, qator mutafakkir bobolarimiz o'sha davr madaniyiyutining yorqin siyomosi bo'lganliklari hamda ular tomonidan ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlar, yozilgan asarlar borligi, milliy musiqamiz durdonasi Shashmaqomning mukammal shaklga kelganligi, rus bosqinidan so'nggi o'zgarishlar haqida so'z boradi.

Аннотация

В этой статье рассказывается о том, что народы Центральной Азии имеют долгую противоречивую сложную историю, что на этой земле было много вторжений и грабежей, что корни узбекской музыкальной культуры и искусства очень древние, и что Александр Македонский с любовью относился к музыкальным инструментам нашей страны, что греки изучали наши музыкальные инструменты, что есть факты, которые могут свидетельствовать об этом, что наши предки-мыслители о том, что шедевр нашей национальной музыки Шашмакомом пришел в совершенную форму, о последних изменениях, произошедших с русским наследием.

Abstract

In this article, the peoples of Central Asia noted that they have a long contradictory complex history, there were a lot of invasions and robberies in this land, the roots of Uzbek music culture and art are very ancient, and Alexander Zulkarnain it is said about the fact that our country looked at musical instruments with kindness, that the Greeks studied our musical instruments, that there are facts that can prove it, that a number of our thinker grandfathers were bright figures of the cultural rise of that time, and that there are many studies, written works by them, that the masterpiece of our national music

Kalit so'zlar: milliy madaniyat, Markaziy Osiyo, chorraha, rivojlanish, cholg'u asboblari, musiqa madaniyati, nazariya, folklor, doston.

Ключевые слова: национальная культура, Центральная Азия, перекресток, развитие, инструментовка, музыкальная культура, теория, фольклор, эпос.

Key words: national culture, Central Asia, crossroads, development, instruments, music culture, theory, folklore, epic.

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlari o'zlarining uzoq ziddiyatli va murakkab tarixida juda ko'p bosqin va talonchiliklarni boshidan kechirdi, ularga qarshi esa ozodlik sari tinmay mustaqillik kurashlari olib borganlar. Shu hududda yashaydigan xalqlar madaniyatida umuminsoniy ahamiyatga molik barcha madaniyat yutuqlari ijodiy uyg'unlashganidek, o'z navbatida shu xalqlar madaniyati o'zga yurt xalqlari madaniyatlariga sezilarli ta'sir ko'satdi va ularni yanada boyitdi. Aytish mumkinki, Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanishida chorraha vazifasini o'tagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qadimgi madaniy an'analarga boy bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'z davrida yuksak madaniyatlari va san'atga ega bo'lgan. Shaharlardagi madaniyatning tez rivojlanishi hamda madaniy

aloqalarning kuchayishi natijasi o'laroq o'lkada Uyg'onish davri boshlandi, ilm-fan va madaniyat misli ko'rilmagan yutuqlarga erishdi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, o'zbek madaniyati, jumladan, o'zbek musiqa madaniyati va san'atining ildizlari juda qadimiydir. "Qo'shiqchilik san'ati ayniqsa Yunon-Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Qadimgi Farg'ona, Qang', Kushon kabi dastlabki quldorlik davlatlarida tez rivojlandi." [1]. Miloddan oldingi IV asrda Iskandar Zulqarnayn Markaziy Osiyonи zabit etganda yunonlar ajdodlarimizdan bo'lgan sug'diyalar, baqtriyaliklar va xorazmiyliklarning boy musiqa madaniyatidan hayratda qolganlar. Ularning (yunonlarning T.SH.) mashshoq-xonandalari ajdodlarimizning ajoyib va dilkash qo'shiq va kuylarini, yuksak ijrochilik san'atini, shuningdek, xushnavo turli cholg'u asboblarini o'rganib, o'zlarining musiqa madaniyatini boyitganlar. Natijada ayrim cholg'u asboblarimiz Yevropa amaliyotida qo'llanilib, yangi ko'rinish (shakl) va nomlanishda butun dunyoga tarqagan. Masalan, ud – lyutiya, dutor, gutor – gitara, arfanun – arfa va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, an'anaviy chog'ular qatorida milliy dombra, qo'biz, Cho'pon nay, sibiziq, chanqobus, doira va turli zarbli asboblar qadimda musiqa amaliyotida qo'llanilgani ma'lum.

"Markaziy Osiyo musiqa nazariyasining asoschisi Borbad musiqa san'atini juda yaxshi his qiladi. Uning "Gulzor", "Sabri bahor", "Xusravashey" kabi musiqiy asarlari sharq san'atining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. U 30 kunga moslab va 360 kunga bag'ishlangan ohanglar asosida musiqa asarlari yaratgan. Borbad dastlabki "Shashmaqom"ning asoschisi hisoblanadi". [2]

Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Rudakiy, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy singari daholar o'sha davr madaniy yuksalishining yorqin siymosi edilar. O'z vaqtida Arab xalifasi Ma'mun Turonu zamin olimu ulamolarini xalifalik markazi Bag'doddagi akademiyasiga olib ketganida, ular madaniyat va ilm-fan oliy dargohining ko'rki hamda fahri bo'lgan edilar. Bu ulug' madaniyat darg'alari orasida Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Javhariy, Ibn mansur Marvarudiy kabi yirik allomalar ham bo'lgan. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklar orasidan o'sib chiqqan bu mutafakkirlar nomlari jahon madaniyati tarixi sahifalariga oltin satrlar bilan bitildi.

O'z davrning buyuk allomasi, tilshunoslik ilmiga asos solgan qomusiy olim Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni lug'otit turk" asarida turkiy xalqlarning tili, madaniyati, etnografiyasi va folklorini ilmiy jihatdan tadqiq etadi. Mahmud Qoshg'ariy o'z asari ustida juda ham ehtiyyotkorlik, va sabr-bardosh bilan ishlagan. Natijada, qadimgi turkiy millatlarning xalq qo'shiqlari va og'zaki ijodi va qo'shiqlari, marosim va bayramlaridagi mehnat qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari haqida juda keng ham boy ma'lumotlar yig'adi. X-XII asr musiqa madaniyati va ashula san'atiga doir ma'lumotlar Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u biling" asarida ham uchraydi.

IX-X asrlarga kelib, Samoniylar davlatida Buxoro yuksak san'at va ilm-fan maskaniga aylanadi. Bu davrda olamga mashhur olimlar, shoirlar, musiqachilar yetishib chiqadi. Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy va boshqalar Markaziy Osiyo madaniyati va san'atiga katta hissa qo'shganlar. Ayniqsa, Al-Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning asarlari Sharq musiqashunosligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati va san'ati tarixini yoritishda Sharq musiqa ilmining asoschisi sifatida tan olingen Abu Nasr Forobiy va Ibn Xaldunning alohida o'rni borligini e'tirof etish lozim. Forobiy musiqa san'ati tarixini inson nutqining shakllanish jarayoni va hissiyorotlari bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlagan bo'lsa, Ibn Xaldun (14-asr) ijtimoiy tizimlarning shakllanish qonuniyatlariga asoslangan holda tushuntirgan.

X asrdan boshlab Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinoning musiqa nazariyalari zaminida mahalliy tillarda musiqa san'ati haqida qator asarlar maydonga kela boshladgi. Shuningdek, buyuk allomalarimiz Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Najmuddin Kavkabiy Buxoriy, Zayniddin Vosifiy, Zaynullobiddin Husayniy, Darvesh Ali Changiy va boshqalar sharqona jahonshumul ahamiyatga molik noyob nazariy va estetik qarashlarini ishlab chiqqan holda mumtoz musiqiy asarlarning ham mualliflari sifatida tanilganlar. Ular o'zlarining asarlarida ijrochilik san'ati, musiqiy ilm va uning tarixi, cholg'u asboblarining tuzilishi, ijob uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariiga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon qilganlar. Didaktik asar bo'lgan "Qobusnama"da ham hofizlik va san'atkorlik qoidalariaga bag'ishlangan alohida bob o'rinn olgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'z mohiyatiga ko'ra, tom ma'nodagi uyg'onish harakatini yaratgan bu jarayon nafaqat Amir Temur saltanatining poytaxti Samarcandda, balki uning avlodlari Shohruh, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur va boshqalar davridagi Buxoro, Kitob, Balx, Qobul shaharlarida ham qizg'in

PEDAGOGIKA

kechdi. O'rta asrlar an'anasi shahar aholisining kasb-koriga ko'ra, jamoa (mahalla) bo'lib yashashni taqozo etar edi. Xalq ichida tanilgan san'atkorlar, hokimlar farmoniga ko'ra yoki o'ziga qulaylik yaratish maqsadida kasbdoshlari bilan jamoa bo'lib yashashni afzal ko'rganlar. Shunga binoan "Xonandalar mavzesi", "Sozandalar mahallasi", "Bastakorlar ko'chasi" joriy etilgan. Bu kasb sohiblarining alohida obro' va nufuzga sazovor bo'lganlari atrofida, maxsus ijod, ijro va ilmiy mavqega ega ijodiy maktablar shakllangan.

Bu davrda eng salobatli milliy musiqa meroslarimizdan bo'lgan Shashmaqom turkumi mukammal shaklga kirdi. Shuningdek, dostonchilik san'ati ham yuksak darajada rivojlandi. Ayniqsa, o'zbek musiqasi ikki asosiy yo'nalishda takomillashib bordi. 1. Xalq ommaviy janrlari bo'lgan bolalar qo'shiqlari, alla, yalla, terma, lapar va raqs kuylari; 2. Og'zaki an'anadagi professional musiqa – ashula, katta ashula, doston, maqom yo'nalishlari shular jumlasidandir.

O'zbek musiqa madaniyatining rivojlanishida buyuk shoir Abdurahmon Jomiyning ham alohida o'rni borligini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, uning "Risolal musiqiy" nomli asarida o'zbek xalqining qadimiy o'n ikki maqomi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beriladi.

XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo madaniyati, o'rta asr adabiyoti va musiqa san'atining eng yuksalgan davri ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy va tojik klassik shoiri va atoqli olimi Abdurahmon Jomiy yashagan davr edi. "A.Navoiy butun Movorounnahr, Xuroson san'at va adabiyot, madaniyat ahlining sarboni bo'lib yangi taraqqiyot pog'onasiga olib chiqdi. Shu davr ichida o'zbek xalqining musiqa madaniyati yuksak scho'qqiga ko'tarildi"[3]. Ayni vaqtida Abdurahmon Jomiy zo'r sozanda va bastakor ham bo'lgan. Abdurauf Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida ta'kidlanganidek, Jomiy o'z zamonasida mashhur bo'lgan "Naqshi Mullo" nomli asar muallifidir.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xonliklari Rus Chor hukumati tomonidan bosib olinishi natijasida musiqa madaniyatimizga Rossiya musiqasi o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Bu jarayonlar uzoq davrlar mobaynida xalqimizning turmush tarziga, mehnat mashg'ulotlariga, turli xil marosimlariga, urf-odat va bayramlariga singib bordi. "Afsuski, sho'rolar saltanati yillarda xalqimiz o'zining milliy musiqa madaniyatini o'rganish va uni rivojlantirish imkonidan mahrum bo'ldi. Milliy musiqa san'ati va madaniyatimiz unutilishga mahkum qilingan bir sharoitda xalqimizning milliy ruhi, estetik didi va his-tuyg'usiga butunlay yot bo'lgan ovro'pacha musiqa madaniyati keng targ'ib qilindi"[4].

XULOSA

Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida muhim o'rin tutgan jadidchilik harakati, adabiyot va san'atning yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy milliy teatr va milliy musiqa san'ati ravnaqi yo'lida katta ishlarni amalga oshirgan. Uning ikki jiddlik "Tanlangan asarlari"ga kiritilgan she'rlari, maqolalari, pyesalari shunday deyishga asos bo'la oladi.

Avloniy o'z she'rlarida musiqaning ilohiyona ta'sir quvvatini ta'riflash bilan kifoyalanmay, turli musiqa atamalarini tahlilini ham berishga harakat qiladi. "Some" – tinglovchi, eshituvchi ma'nosini beruvchi, "Tarannum" – ohang, kuy, "Takallum" – qo'shiq, ashula, "Nag'masoz" – kuy yozuvchi, bastakor kabi atamalar shular jumlasidandir. Adib musiqani nafaqat san'at, balki falsafa, din, tibbiyot va umumman koinot bilan bog'liq bo'lgan yaxlit bir hodisa sifatida o'zaro mutanosiblikda idrok etadi. Uning musiqa inson ruhiga, ma'haviyatiga qanchalik ta'sir ko'rsatishi, ta'lim va tarbiyada muhim rol o'ynashi haqidagi fikr va tushunchalari barcha jadid ziyorilariga xos bo'lib, Makaziy Osiyo musiqashunoslarining fikrlariga monand keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Хамидов Х. Ўзбек анъанавий қўшиқчилик маданияти тарихи. Т.: "Ўқитувчи" 1996.-Б.26.
- Сайдалиев Ю. А. Барбад один из основателей восточной музыки. Проблемы современной науки образования.-Тошкент: 2022.-С.42.
- Маннопов С. Навобахш оҳанглар. Т.: "Ижод пресс. 2018.-Б.12.
- Shokirov.T. Monografiya. O'zbek madaniyatini rivojlantirishda vorisiylik. Ijtimoiy- falsafiy tahlil (Musiqiy meros misolida) – Farg'ona. Klassik nashriyoti. 2024. – B. 56.